XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 11-fevral VII-7-13-7-94-K/25 Jomboy tumani

2025-yilda Jomboy tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffitsientlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014 sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlarga asosan, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014 sonli Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga kiritilgan o‘zgartirishlar ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 9-yanvardagi P-00375-sonli xati bilan tumanning 2025-yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining miqdorlariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha bergan takliflari inobatga olinsin.

2025-yil uchun Jomboy tumani hududida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffitsientlar 1-ilovaga hamda yer qa’ridan foydanilganlik uchun soliq bo‘yicha noruda qurilish materiallari uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalariga oshiruvchi koyeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimning moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Sadullayev,

tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Salomov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Baratov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (U.Mamatov) zimmasiga yuklatilsin

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Jomboy tuman Kengash raisi

SOBIROV KAYUM XAMRAYEVICH

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2025-yil 11-fevraldagi
VII-7-13-7-94-K/25 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq Jomboy tumanida 2025-yil suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koyeffitsientlar

№	Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyektlari	Belgilangan soliq stavkasiga kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koyeffitsient (0,7-1,5 gacha)	
		Yer usti suv manbasi	Yer osti suv manbasi
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar	1,2	1,2
2.	Avtotransport vositalarini yuvish	1,2	1,2
3.	Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish	1,2	1,2

IZOX: O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-moddasiga muvofiq belgilangan limit doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan bir kub metr suv resurslari uchun mutlaq o‘lchamdagi soliq stavkasiga Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilayotgan kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsientlar ushbu modda birinchi qismining 2 va 3-bandlari, shuningdek ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga tadbiq etilmasligi belgilab qo‘yilsin.

Xalq deputatlari Jomboy tumani
Kengashining
2025-yil 11-fevraldagi
VII-7-13-7-94-K/25 -son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 452-moddasiga muvofiq Jomboy tumanida 2025 yil Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

№	Soliq solish obyektining nomi	Qat’iy belgilangan soliq stavkasiga oshiruvchi koyeffitsient (1,3 gacha)
1	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	1,0
2	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,0
3	Marmar	1,0
4	Granitlar	1,0
5	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	1,0
6	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	1,2
7	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi	1,3